

ZAMONAVIY O'ZBEK ESTRADA XONANDALIGINING SHAKLLANISHI

Andijon ixtisoslashtirilgan san'at maktabi Estrada vokal artisti yo'nalishi o'qituvchisi Mamatxojayev Azizbek Akramovich

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek estrada san'atini kirib kelish, estrada honandaligi yo'nalishida tamal toshini qo'ygan ustoz san'atkorlar ijodi, xalq qalbidan joy olgan musiqiy ijodiy asarlar tarixiga yuzasidan ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Kalit so'z: bastakor, qo'shiq, raqs, san'at, myuzik holl, janr, konsert.

СТАНОВЛЕНИЕ СОВРЕМЕННОЙ УЗБЕКСКОЙ ЭСТРАДНОЙ ПЕСНИ

*Андижанская специализированная школа искусств
Эстрадный вокал художник - постановщик
Маматходжаев Азизбек Акрамович*

Аннотация: В данной статье представлена информация по истории узбекского эстрадного искусства, творчеству мастеров, заложивших краеугольный камень в направлении эстрадной песни, музыкальным произведениям, занявшим место в сердцах народа.

Ключевое слово: композитор, песня, танец, искусство, Мюзик-Холл, жанр, концерт.

THE FORMATION OF MODERN UZBEK POP SONGS

*Andijan Specialized Art School Pop vocals production designer
Mamatkhodzhaev Azizbek Akramovich*

Annotation: this article contains information on the history of the introduction of Uzbek pop art, the work of master artists who laid the foundation stone in the direction of pop tradition, musical creative works that took place from the hearts of the people.

Keyword: composer, song, dance, art, Mystic Hall, genre, concert.

Kirish.

O'zbekistonda estrada san'ati tarixi 1913 yilda, musiqachi va bastakor Mixail Kurbatovning Moldovadan (Besarabiya) Toshkentga kelishi bilan boshlangan. U shahardagi birinchi estrada orkestrini tashkil qildi, u o'sha paytda mashhur bo'lgan tangolar, fokstrotlar va boshqa moda kuylarini ijro etdi.

O‘tgan asrning 30-yillarida O‘zbekistonda boshqa estrada guruhlari paydo bo‘la boshladi, ular klublarda, bog‘larda, raqs maydonlarida chiqish qilishdi. 1946-yilda bir qancha guruhlarni birlashtirgan va respublikada estrada san’atining rivojlanishi markaziga aylangan O‘zbekiston Davlat estrada san’ati (O‘zDavlat estrada) tashkil etildi.

O‘zbek milliy musiqa san’atini yanada rivojlantirish, yosh iste’dod egalariga yo‘l ochib berish, ularni qo‘llab-quvvatlash, moddiy va ma’naviy rag‘batlantirish, estrada qo‘sinqchiligining yutuq va tajribalarini umumlashtirish, soha taraqqiyoti uchun zarur imkoniyatlar yaratish, badiiy yuksak asarlarni targ‘ib etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Estrada qo‘sinqchilik san’atini yanada rivojlantirish” to‘g‘risida qarori qabul qilindi¹. Bugungi kunda mazkur qaror Respublikamizning barcha viloyatlarida o‘z natijasini berib kelmoqda. Shu o‘rinda bir savol tug‘ilishi tabiiy, estrada san’atining asoschilari, uni rivojlanishida tamal toshini qo‘ygan ustozlar kimlar bo‘lgan?. Bu kabi savollar, yoshlarni, tadqiqotchi olim va olimalarni hamisha izlanishga va yoritishga undaydi.

Tahlil va natijalar.

1950-yillarda O‘zbekistonda estrada musiqasi ayniqsa mashhur bo‘ldi. Bu vaqtida Muxtor Ashrafiy, Xalima Nosirova, Botir Zokirov va boshqalar kabi taniqli ijrochilar paydo bo‘ldi. Ular o‘zbek, rus va boshqa tillardagi qo‘sinqilar, mashhur xorijiy xitlarni ijro etishdi. Shu jumladan Muxtor Ashrafiy estrada san’atini rivojlanishida ulkan hissa qo‘shtigan san’at arboblari sirasiga kirgan ijodkor hisoblanadi. Qo‘sinq janridagi ijodiga nazar solar ekanmiz Muxtor Ashrafiyning “G‘unchai xandonimdan”, Fuzuli so‘zi – 1953 yil, “Xabardo et”, “G‘amim dildora izxor et”, Fuzuli so‘zi – 1958 yil, “Ey, sanamsan Sharq”, Laxuti so‘zi – 1935 yil, “Subhidam”, G‘.G‘ulom so‘zi – 1949 yil, “Tong chog‘i esgan sabo”, M. Ansori so‘zi – 1974 yil, “Dilam xoxadi baxori zindagiro”, M.Tursunzade so‘zi – 1975 yil, “Sahar bulbul hikoyat bor sabo kard”, Hafiza so‘zi – 1975 yil. M.Ashrafiyning Simfonik orkestr va ovoz uchun “Kel”, Uyg‘un so‘zi 1944 yil, “Jonim mening”, Navoiy so‘zi 1948 yil, “Tinchlik kabutari”, Uyg‘un so‘zi 1951 yil, “Sevdim seni”, A.Po‘lat so‘zi 1954 yil, “Qashmirda” Furqat so‘zi 1960 yil, “Mehri Modar” I.Mirzo so‘zi 1963 yil, “Vafo yaxshi”, Xabibi so‘zi 1964 yil, “Toshkent baxori” M.Karieva so‘zi 1964 yil, “Xush omaded”, “Olg‘a”, K.Yashin so‘zi 1935 yil, “Vatan qo‘shtig‘i” J.Oymurzaeva so‘zi 1957 yil kabi sara asarlari xalq qalbidan joy olib o‘zibek musiqa san’atida qo‘sinq janrini milliy estrada kabi janrlarni kirib kelishiga poyqdamlar qatoridan bo‘lganliklarini misolidir.

¹ <https://lex.uz/acts/333987>

XX asrning 30-40-yillarda ko‘p ovozli musiqa san'atining barcha turlarini o‘zlashtirish jarayonida eng avval Tolibjon Sodiqov, Muxtor Ashrafiy, Mutal Burxonov, Sharif Ramazonov, Manas Leviev, Sulaymon Yudakov, G‘afur Qodirov, Mardon Nasimov kabi kompozitorlar ko‘p izlandilar va ijobiliy natijalarga erishdilar, ijodiy tajribalari ortib, XX asr o‘zbek musiqa tarixida yangi uslubiy yo‘nalishga tamal toshini qo‘ydilar².

Halima Nosirova ijodiga nazar solar ekanmiz, ijodkor o‘zbek ayolining timsolini ushbu ijod yo‘lida ko‘rib namuna olishga arzigulik ijod yo‘li desak mubloag‘a qilmagan bo‘lamiz, har bir janrda o‘z ijodini professional darajada bajargan o‘zbek ayolining ijodi o‘zbek estrada san'atini rivojlanishida katta qadamlarni qo‘yanligini ijodida aytilgan qo‘shiqlardan ko‘rishimiz mumkin. Halima Nosirova 1939–86 yillarda Navoiy teatrining yetakchy yakkaxon xonandasini bo‘lib faoliyat yuritgan o‘zbek honanda ayollaridan biri bo‘lgan.. Noyob, o‘ziga xos shirali va keng diapazonli ovoz, sahnaviy iste’dodga ega o‘zbek ayoli ijodi davomida “Halima” (G. Zafariy), “Arshin mol olon” (U. Xojibekov), “Layli va Majnun” (Xurshid; T. Sodiqov musiqasi), “Farhod va Shirin” (Xurshid; V. Uspenskiy), “Gulsara” (Komil Yashin va M. Muhammedov; R. Glier) kabi musiqali spektakllarda bosh rollarni ijro etib shuhrat qozongan. Zamonaviy ashulalarmi maromida kuylab quyidagi qo‘shiqlar bilan, “O‘zbek qizi ovozi” (M. Leviyev), “Xush kelibsiz”(Sayfi Jalil) singari kompozitorlarning qo‘shiqlarini ko‘tarinki ruxda tarannum etgan. Boshqa xalqlar (tojik, qozoq, arman, ozarbayjon, xitoy, rus, ukrain kabi) qo‘shiqlari ham Halima Nosirova. repertuaridan o‘rin olgan. Osiyo, Amerika va Yevropa mamlakatlariда gastrolda bo‘lgan. Davlat mukofotlari (1946,1951, 1968), Hamza nomidagi O‘zbekiston Davlat mukofoti laureati (1968), "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni (2000) bilan mukofotlangan.

Estrada san'atini o‘zbek san'atini qalbiga kirib borishida qo‘shiq bilan bir qatorda qo‘shingga xos raqslarning ommaga taqdim qilgan Tamaraxonim ijodi ham beqiyosdir. 1925-yil Parijda bo‘lib o‘tgan Jahon bezak san’ati ko‘rgazmasida Muhiddin Qoriyoqubov bilan birgalikda o‘zbek qizi Tamaraxonim o‘zbek san'atini ilk bor Yevropada namoyish etgan. Tamaraxonim o‘zbek lapar va yalla namunalarini sahnaviy ijro sharoitiga moslashtirib, yangicha ifodaviy vositalar (mimika, raqs, dialog va boshqalar) bilan boyitib, ular negizida bir necha kichik musiqiy inssenirovkalarni yaratdi, milliy ommabop (estrada) san’at rivojiga asos soldi. Tamaraxonim ijrosidagi qo‘shiq va laparlar (“Lolaxon”, “Qorasoch”, “Bilaguzuk”, “Oyijon”, “Fabrikaning yo‘lidan”, “Qizlar, shitobingiz nima?”, “Gulyor”, “Yetimlar yig‘isi”, “Tuyg‘unoy”,

² Сайдов , Ж ., & Рузиев , Д. Ю. (2022). ЗАМОНАВИЙ ЭСТРАДА САНЬАТИ ЎЗБЕК КОМПОЗИТОРЛАРИНИНГ ИЖОДИЁТИДА. Центральноазиатский журнал образования и инноваций, 1(2), 144–147. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/cajei/article/view/7218>

“Erk bolalari” va boshqalar), “Sinaxiroj”, “Dilxiroj”, “Qarinavo”, “Usmoniya” singari raqslari xalqqa manzur bo‘lgan³. Estrada san'atini xalqimizga olib kirishda fidoiylarcha mehnat qilgan xalq qalbidan chuqur joy olgan ijodkorlar qatorida Botir Zokirov qo‘sishqlari yana ham estrada san'atini go‘zal ohanglari borligini anglab yetdi. Botir Zokirovni estrada san'atiga kirib kelishi nafaqat o‘zbek xalqi uchun Uzoq Sharq, Saxalin, Sankt Peterburg, Moskvada ham o‘z mavqyeiga ega ekanligini ko‘rshimiz mumkin.

Estrada san'atini O‘zbekistonga kirib kelishini o‘rganar ekanmiz B.Zokirov ijodi beqiyos ekanligi B.Zokirovning yaqinlari bilan olib borilgan suhbatlarda ham bilish mumkin. Xurshid Davron kutubxonasidan olingan ma'lumotlarda Farrux Zokirovning bergen intervylulari 1964-1973 yillar mobaynidagi tarixiy voqyealarni barcha elementlari bilan xotirlagani, o‘zbek estrada san'atini butun dunyo tan olishi uchun B.Zokirovning o‘lmas qo‘sishqlari yoqqol misolligi keltirib o‘tilgan. F.Zokirovning ta’kidlashicha tarix zarvaraqlarida, Botir Zokirovdan oldin Tamaraxonim Parijdagi xalqaro san'at ko‘rgazmasining pavilonda “Ro‘molim” degan qo‘sishni aytgan ekan. Ikkinchi qo‘sishni Botir Zokirov aytgan ekan. U paytda markazda, Moskvadan gruppalar yig‘ilib borilar Parijdan Kokatriks degan impressario kelib bu juda mashhur impressario bo‘lgan ekan. Parijda «Olimpiya» degan eng mashhur zalda san'atkorlarni tanlash uchun Kokatriks hammani zalda eshitib tavsiya qilgan. Bu tanlovda B.Zokirov qo‘sish aytishi e'lon qilingan ekan.

“Myuzik xollni o‘zbeklardan chiqqan, deb aystsak ham bo‘laveradi” deb aytardilar. Estrada janri, myuzik holl janri ploshadnoe iskustvo. Bizlarning maydon san'atkorlari borku, masxarabozlar, dorbozlar. Bularning myuzik hollga bevosita tegishli joyi bor deb o‘z so‘zini ta’kidlab o‘tadi F.Zokirov o‘z intervyusida.

F.Zokirov so‘zlarida myuzik holl qozoqlarda, qirg‘izlarda, tojiklarda yo‘qligi, bu aynan o‘zbeklarga xos janr ekanligini ta’kidlaydi. F.Zokirov Leningradda bu janr turi bo‘yicha konsertda qatnashgani, bir oy bitta joyda konsert berib, lim-lim odamlar kelganini ta’kidlaydi. 1973 yilda hamma qo‘lini ko‘tarib, “E qoyil. Mana san'at. Haqiqiy myuzik holl mana bunaqa bo‘ladi” deb tan berishgani ta’kidlab o‘tadi.

O‘zbek estrada san'ati haqida qancha mulohoza qilinsa, yaratgan musiqiy asarlari o‘lmas durdona bo‘lib yashab kelayotganini ta’riflasak ham ozlik qiladi. Halima Nosirova, Tolibjon Sodiqov, Muxtor Ashrafiy, Botir Zokirov kabi o‘zbek estradasini shakllanishida munosib hissa qo‘sishgan ustozlarning har bir asari uslubiy, o‘quv qo‘llanmalar bo‘lib yoritilishiga arziydi desak mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz.

Xulosa.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joyizki, o‘zbek estrada san'atining rivojlanishi uning yosh avlodga yetib kelishida XX asr ijodkorlarining o‘rni beqiyosdir.

³ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Tamaraxonim>

1980-yillarda O‘zbekistonda estrada musiqasi rivojlanishda davom etdi. Bu vaqtida Ozodbek Nazarbekov, Yulduz Usmonova, Rashid Xoliqov va boshqalar kabi yangi ijrochilar paydo bo‘ldi. Ular estradadan tortib, rok va repgacha turli janrdagi qo‘shiqlarni ijro etishdi.

1990-yillarda O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, mamlakat estradasi inqirozli davrni boshidan kechirdi. Biroq, qiyinchiliklarga qaramay, O‘zbekistonda estrada san’ati rivojlanishda davom etdi. Bu vaqtida Shahzoda, Lola, Anisa Rahimova va boshqalar kabi yangi ijrochilar paydo bo‘ldi. Ular o‘zbek tilidagi qo‘shiqlarni ijro etib, yoshlarga manzur bo‘ldi.

Ayni paytda O‘zbekistonda estrada sahnasi yuksalib bormoqda. Mamlakatda estradadan tortib, rok va repga qadar turli janrdagi qo‘shiqlarni ijro etuvchi yangi san’atkorlar yetishib chiqmoqda. O‘zbek estradasi nafaqat O‘zbekistonda, balki xorijda ham tobora ommalashib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ma'mur Umarov “Estrada va ommaviy tomoshalar tarixi” Toshkent, 2009.
2. N. Qahharov “Vokal asoslari” Toshkent, 2008.3.E. Rahimov “Vokal” Toshkent, 2010.
3. Panjiev Q., Azizov R., “Estrada qo‘schiqchiligi yoshlarni tarbiyalashning ma’naviy vositasi sifatida”, “Zamonaviy ta’lim” 7-son, 2018 y.
4. Mullajonov D.M. 1990-yillar o‘zbek musiqiy estradasida ohang muammosi: san’at. fan. nomzod. dis. - Toshkent, 2004
5. <https://kh-davron.uz/kutubxona/multimedia/botir-zokirov-rano.html>